


SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024- YIL YANVAR-IYUN (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 76-225-65-76
www.surxonstat.uz

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3040 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 406 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 13,4 % i) Termiz shahriga, 381 tasi (12,5 %) Denov tumaniga, 253 tasi (8,3 %) Sho'rchi tumaniga, 222 tasi (7,3 %) Sariosiyo tumaniga va 215 tasi (7,1 %) Jarqo'rg'on tumaniga to'gri kelmoqda.




Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogi.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5 162,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahrida (3648,9 ming so‘m) Termiz tumanida (2697,3 ming so‘m), hamda Sherobod tumanida (2683,1 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1785,0 ming so‘m) sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatmoqda.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 4623,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 89,5 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Termiz shahri (14,3 %), Sherobod tumani (11,0 %), Jarqo'rg'on tumani 10,8 %), Denov tumani (10,0 %) hamda Sho'rchi tumani (9,5 %) hissasiga tog'ri keldi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Angor tumanida (115,3 %), Muzrabot tumanida (110,6 %) hamda Sarosiyo (110,1 %) tumanlarida kuzatildi.




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 158,9 mlrd. so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 3,1 % ga to‘g‘ri keldi.



*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



Yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	144,8	264,6	119,8
Neft, ming t.	38,7	35,9	- 2,8
Qattiq tuz, ming t.	11,9	7,5	- 4,4
Chaqiq tosh, ming t.	5,1	34,5	29,4

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4623,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 89,5 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

	Paxta chigit	Paxta tolasi	Sement
2024-y.	54,0	159,8	127,8
2023-y.	105,0	122,4	1234,1
2022-y.	279,4	69,3	30,6
O'simlik yog'i (tozalangan)		Tuz	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2024-y.	103,4	29,9	100,3
2023-y.	73,8	17,2	33,8
2022-y.	105,5	296,6	97,7

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,9 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,3 % (25,7 %), quyi texnologiyali 63,7 % (62,9 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 46,8 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi – 13,8 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish ulushi – 10,7 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %)ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,6 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,2 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,8 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 69,9 ming l 100%li spirit aroq (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 33,1 % ga kamaygan), 80,5 ming l uzum vinosi (21,3 % kamaygan), paxta tolasi 15,9 ming. t (59,8 % ga ko'paygan) hamda 19,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (0,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Aroq, ming l 100%li spirit	104,5	69,9	-34,6
Uzum vinosi ,ming l	102,2	80,5	-21,7
Paxta tiviti, tonna	1745	997	-748
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	19,5	19,6	0,1
Paxta tolasi, ming t.	9,9	15,9	6,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,3 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 116,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamlalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,6 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 554,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,8 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 636,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 178,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 74,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 40,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,1 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2086,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 111,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 320,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 152,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 30,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni, xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalashni hamda etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.



2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,7 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 212,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.




Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug‘ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 288,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ini) tashkil etgan.



*Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni
konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi
hajmidagi ulushi*




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyun oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 166,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 78,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	200,3	334,0	133,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	14,8	11,7	- 3,1
Quyosh elektr stantsiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln kVts	-	2,1	2,1

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 92,4 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % iga) to'g'ri keldi.



*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 39,6 % ga ko'paydi. Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 4,7 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	4,3	4,1	-0,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari boyicha taqsimlash boyicha xizmatlar- mlrd.so'm	28,4	39,6	11,2

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar




Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3054,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 59,2 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 49,8 % ni tashkil etgan.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 34 ta loyiha bo'yicha 137,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu bilan birga 141 ta yangi ish o'rinnari yaratildi

